

BAXT NIMA?

HOSHIMOVA DILDORA FOZILJON QIZI

O'zbek tili kafedrası notıqlık san'atı fanı katta o'qıtuvchısı Jaloliddin Abdullayev ustozimizdan: "Baxt o'zi nima?" - deb so'radik. Ustoz shunday javob berdilar.

Qadimgi Rimlik mashhur sarkarda aytgan ekan – “Baxtimning birinchısı-inson bo'lib dunyoga kelganim, ikkinchısı - rimlik bo'lib tug'ilganim, uchinchısı – erkak bolganim", degan. Negaki, ayollarga juda katta mas'uliyat yuklangan. Biz

erkaklar, ayollar qadriga yetishimiz kerak. Bir qizni so'zida yoki yurish-turishida masxara qilgan yigit - eng katta baxtsiz erkakdir. Chunki u qilgan masxarasi bir kun kelib uning o'z qiziga qaytadi, degan edilar.

Men esa qachon baxtni his qilganman - sizlarga aytib bermoqchiman

Yakkabog'dagi suv omborida bundan 15 yil avval yosh edim, o'rtoqlarim bilan

bahs boylab baliq bo'lib suzganman. Suv omborining tubidan harbiy yigit bilan qum olib chiqish kerak edi. U Buxorolik edi, meni aldabdi. U harbiy bo'lgani uchun harbiylarda hiyla bo'ladi-da. Men chin dildan ishonib, 20-25 metrlik suv tagiga tushdim. Suv juda muzdek edi. Sovuqdan tomirlarim tortishdi. Suv o'tlari orasida qumni olib chiqa boshlaganimda, oldimdan juda sovuq, qalin narsa o'tib ketdi. Chiqayotganimda qarasam, o'rto'g'im allaqachon sohilga qarab suzib ketmoqda. Meni esa qo'llarim qiyshayishni boshladi, oyog'im suzmay qoldi. O'sha paytda bobomning suhbatlarida bo'lganim yodimga tushdi. Bobom aytgan edilar:

“Daryoda suzayotganingda tomiring tortsa, cho'kayotgan bo'lsang, orqangga quyoshga qarab yotib ol. Shunda cho'kmaysan." Men ham shunday qildim va sohilga chiqdim.

Sohilga chiqqanimizdan keyin Kitob tumanining dovoniga bordik. O'sha yerda mashina oynasidan boshimni chiqarib, muzdek havoni chuqur yutdim. Yoz kunida

salqin havo, suv to'la o'pkaga kirs, tomirlarni sovuq uradi. Natijada shamollab, koronavirusga o'xshash pnevmoniyaga chalinganman. Yonimda bir do'stim bor edi, u tibbiyot xodimi edi. Yonida vazelinga o'xshash qizil dori bor edi. Orqamga surtib, uqalab, nafas oldirdi. Uyga borgach, haroratim 41 darajaga chiqdi, butun tanamdan suv chiqdi. O'sha voqeadan tirik qolganim -men uchun eng katta baxt edi.

Ustozimiz o'z hayotlaridan misollar keltirganlaridan so'ng yana so'z boshladilar: Baxt nima, bilasizmi?" dedilar. "Baxt va omad - bir-biriga yaqin tushunchalar Baxt - sizning yaxshi insonlarning farzandi bo'ib dunyoga kelganingiz, ota-onangiz borligi, ular sizni quchoqlab erkalatganlari, ular bilan birga ulg'ayganingizdir. Eng katta baxt - inson bo'lib dunyoga kelganingizdir. Axir biz

ko'r yoki hayvon bo'lib kelishimiz ham mumkin edi. Ammo inson bo'lib tanlanganmiz -bu o'zi katta baxt!"

"Baxt deganda faqat turmush qurishni tushunmang. Bu-baxtning bir ko'rinishi xolos. Baxtga erishish uchun harakat qilish kerak. Bir insonni baxtli qila olish- bu ham baxt. Bir insonni sevdirish - bu ham baxt."

Yana bir savol berdik: "Inson hayotini qanday o'tkazishi kerak?"

Ustozimiz dedilar: "Inson hayotini shunday yashashi kerakki, tug'ilganida u yig'lasa-yu, hammalar hursand bo'lsa. Vafot etayotganida esa hamma yig'lasa-yu, u o'zi hursand bo'lib ketsa. Bugun qilgan ishidan ertaga afsuslanmasin.

Bir hofiz aytadi:

Baxtli bo'limog'im mumkin edi, ammo aql yetmadi, keksalik chog'imda baxtiyor bo'lishim mumkin edi, ammo umrim yetmadi.

Shuning uchun Farobiy aytgan: "Xato qilmaslik uchun bolaligingda keksa odamdek fikr yurit." Shundagina xato qilmaysan.